

Sana:

Sinf:2

Fan: matematika

Mavzu: 3ni ko'paytirish va 3 ga bo'lish jadvali

Maqsad:

Ta'limiy:

3ni ko'paytirish va 3ga bo'lishga doir masala va misollarni jadval orqali yechishni o'rgatish;

Tarbiyaviy:

Har bir masalani ahillik, birdamlik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatini tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi

Matematik topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish

Dars turi: noan'anaviy

Dars uslubi: savol- javob, klaster, muammoli vaziyat, krossvord, suhbat, tushuntirish, ko'rsatish.

Dars jihozi: tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, kompyuter, DVD moslamasi, televizor, darslik.

Darsning borishi:

t/r	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	3
2	Uy vazifani so'rash va baholash	12
3	Yangi mavzu bayoni	20
4	Mustahkamlash	7
5	Uyga vazifa berish va baholash	3

1. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash
- d) ma'naviyat daqiqasi

O'qituvchi milliyligimiz haqida, Navro'z hamda bahor fasli olib boriladigan ishlar haqida suhbatlashiladi.

- s) o'quvchilarni darsga hozirlash

2. Uy vazifani so'rash va baholash:

O'quvchilardan uy vazifani so'rash uchun ularning daftarlarida tayyorlab kelgan topshiriqlar tekshiriladi. So'ngra ular o'rtasida "Qaynoq kartoshka" mashqi o'tkaziladi. Bunda o'quvchilarning 2 ga ko'paytirish va 2 ga bo'lish jadvalini o'zlashtirganligi tekshiriladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga tomon qaynoq kartoshkalarni uzatadi. O'quvchilar esa darrov ushlab javobini qaytaradi. Javob berolmagan o'quvchi kuyib qolib yutqazadi. Bu o'yinni kichik guruhlarda ingliz tilida ham o'tkazsa bo'ladi.

Masalan:- **Two multiply two is?**


- Four
- **Two multiply five is?**
- **Ten**

Yakunda guruhlar to'plagan ballar hisoblanadi. G'olib guruhga rag'bat sifatida beshyulduz beriladi.

3. Yangi mavzu bayoni:


Mavzu doskaga yoziladi. Bugungi dars bayoni misol va masalalar kompyuter moslamasi orqali slaydda namoish etiladi.

yulduzchalardan



2-misol sabzavotlar ortiga yozilgan bo'lib o'quvchilar ularni o'z savatlariga joylaydilar.

3- masala slayd orqali ko'rgazmalar bilan namoish etiladi. O'quvchilar ularni bajaradilar



$$27:3=9$$

O'quvchilar vazifani bajarguncha o'qituvchi guruhlariga topshiriqlar beradi. Ushbu topshiriqlarni bajarishda ular krossvorddan foydalanib "Assalom Navro'z" so'zini hosil qiladilar.

4. Mustahkamlash:

O'quvchilarning fikri umumlashtirilib, ularning amal hadlarining nomini qanchalik bilishlari tahlildan o'tkaziladi. O'quvchilar "Tezda to'ldir" mashqidan foydalanib jadvalni to'ldiradilar.

Ko'paytuvchi	3	3	3	3	3	3	3
Ko'paytuvchi	3	4	5	6	7	8	9
Ko'paytma							

5. Uyga vazifa berish va baholash:

O'quvchilarning darsga bo'lgan faolligi hamda mustaqil fikrlari inobatga olinib, rag'batlantiriladi. O'quvchilar bilimi baholanadi. O'quvchilarga uyga vazifa 5-6-misollarni yechib kelash topshirig'I beriladi.